

PIRIMQUL QODIROV IJODINING TARIXIY-ESTETIK QIYMATI

Tolibjonova Gulyoraxon Turobjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlari va istiqlol davri badiiy–ilmiy izlanishlarining adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyati tahlil qilinadi. Adibning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” singari asarlarida tarixiy shaxslar konsepsiyasi, badiiy talqin tamoyillari hamda milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Pirimqul Qodirov, tarixiy roman, Bobur, Humoyun, Akbar, milliy o‘zlik, adabiyotshunoslik, til, tarixiy talqin.

Pirimqul Qodirov o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan adib, tarixiy-badiiy tafakkurimizning yetuk namoyandalaridan biridir. Uning ijodi XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti, jumladan milliy tarixni badiiy talqin qilish jarayonida alohida o‘rin tutadi. Adibning tarixiy romanlari, ilmiy badiyalari va publitsistik qarashlari bir maqsad — millatning tarixiy xotirasini uyg‘otish, ma’naviy birlikni mustahkamlash g‘oyasiga xizmat qiladi.. Qodirov asarlarida o‘zbek xalqining ma’naviy ildizlari, milliy o‘zlik, ma’rifat, tarixiy xotira va avlodlar orasidagi uzviy bog‘liqlik g‘oyasi yetakchi mavzu sifatida yoritiladi. Qodirov ijodi nafaqat badiiy zavq bag‘ishlaydi, balki xalq tarixiga yangicha nazar tashlash, ajdodlar merosini anglash, kelajak avlod mas’uliyatini his qilishga undaydi.

“Yulduzli tunlar” romanida adib Bobur shaxsiyatini tarixiy haqiqat, badiiy mantiq va estetik yondashuv uyg‘unligida talqin etadi. Bu asargacha yozuvchi, asosan, o‘z zamondoshlari va zamonasi muammolariga bag‘ishlangan asarlar yozdi. „Yulduzli tunlarda” esa, adib ilk bor tarixiy mavzuga murojaat etdi, buyuk tarixiy shaxs obrazini yaratishga kirishdi. Boburni shunchaki tarixiy shaxs emas, balki xalqparvar, adolatli, ma’rifatparvar davlat arbobi sifatida gavdalantiradi. Asarda XV–XVI asrlardagi siyosiy ziddiyatlar, ijtimoiy muhit, yosh Boburning taqdir sinovlari yorqin badiiy lavhalar orqali ochib beriladi. Boburning mag‘lubiyatlar, xiyonatlar, kuchli bosimlar ostida ruhiy

yetuklikka yetishi, adolatparvar, bag'rikeng shaxs sifatida shakllanishi, ezgulikka intilishi, bag'rikenglik tamoyillariga sodiqligi romanning asosiy mazmunini belgilaydi. Adib Boburning Hindistonda kuchli davlat barpo etish yo'lidagi faoliyatini ham xolis tasvirlaydi, uning ko'p millatli jamiyatda adolat tamoyillarini ustuvor qo'yishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ko'rsatadi.

“Avlodlar dovoni” romanida esa Bobur avlodlarining taqdiri, xususan Humoyun va Akbarshohning saltanatni mustahkamlash yo'lidagi faoliyati yuksak badiiyatda tasvirlanadi. Adib Humoyunning sulolani saqlab qolish borasidagi kurashlarini, Akbarshohning islohotchi sifatidagi fazilatlarini tarixiy asoslar bilan yoritadi. Akbar ruhidagi bag'rikenglik, ilm-fanga e'tibor, dinlararo muvozanatni saqlash g'oyalari romanning asosiy yo'nalishini belgilaydi. "Avlodlar dovoni" romanida "muallifdan" deyilgan izoh bor. Ana shu bitikda yozuvchini roman yaratishga ilhomlantirgan ijodiy niyatning tug'ilishiga asos bo'lgan sabablarga quyidagicha ishora qiladi: "Zamonaviy ehtiyojlar bizni tarixdan saboq olishga undaydi. Bugungi odamzodni bezovta qilayotgan katta muammolar o'tmish zamonlarda boshqacha shakllarda va o'zgacha miqyoslarda bolsa ham ajdodlarimizning boshiga tushgan. Ular bu muammolarni tushunish va hal qilish yo'lida juda ko'p ma'naviy izlanishlarni boshidan kechirganlar va o'z tarixiy tajribalarini bizga meros qilib qoldirganlar.

Xalqlarimiz tarixining chatishgan va payvand bo'lgan nuqtalaridan turli ellarni bir-biriga ruhan yaqinlashtiradigan va turfa madaniyatlarni yuksaltiradigan ma'naviyat mevalari yetilib chiqdi. O'sha davrda dunyoning eng qudratli taraqqiyparvar mamlakatlaridan biriga aylangan Hindiston barcha xalqlarni milliy nizo, diniy adovat balolaridan xalos qilishning yangi yo'llarini izlagan, hamma ellar va e'tiqodlarni teng deb e'lon qilgan, jahonda birinchilardan bo'lib "sulhi kull" har tomonlama tinchlik siyosatini boshlab bergan edi. Hindistonda tug'ilib o'sgan va uni o'zining vatani deb bilgan Akbar mana shu siyosatning tashabbuskori bo'lgan edi. Albatta siyosat bilan hayot orasida katta farglar va kuchli ziddiyatlar mavjud edi. Akbar ham, uning otasi Humoyun ham unar bo'yi ichki-tashqi ziddiyatlar girdobida yashaganlar. Eng xatarli asnolarda beg'araz, halol mehnatkash xalq vakillari ularni naqd o'limlardan qutqazib qolganligi tarixiy hujjatlardan

ma'lum. Shu sababli romanning g'oyaviy yo'nalishini Nizom, Salim, La'l Chand, Mohim enaga kabi xalq vakillari orqali belgilashga intildim".

Mazkur asarlari orqali muallif Boburiylar sulolasining nafaqat siyosiy, balki ma'naviy meros sifatida naqadar buyuk rol o'ynaganini ko'rsatadi. Asarda:

- tarixiy shaxslar obrazidagi qat'iyat,
- xalqning ijtimoiy-siyosiy yo'li,
- ma'rifat va ilmga intilish,
- yurt taqdiriga mas'uliyat

markaziy mavzular sifatida ko'tariladi.

Bu orqali Pirimqul Qodirov har bir avlodning o'zidan keyingisiga ma'naviy nur, tajriba, saboq qoldirish zarurligini ta'kidlaydi.

Istiqlol yillarida Pirimqul Qodirovning ilmiy-adabiy qarashlari yangi mazmun kasb etdi. "Til va el" nomli ilmiy badiasida adib xalq tili masalasini millatning ma'naviy negizi sifatida talqin qiladi. Til tarixi, izohli manbalar, qadimgi allomalar merosi asosida u tilni asrash va rivojlantirish millatning eng muhim vazifasi ekanini ta'kidlaydi. Adibning "Amir Temur siymosi" asarida esa Sohibqironning tarixdagi o'rni, uning davlat boshqaruvidagi adolat tamoyillarining zamonaviy talqini o'zgacha ilmiy-badiiy yondashuv bilan ochiladi.

Pirimqul Qodirovning ijodi bugungi avlod uchun ham ma'naviy maktabdir. Uning tarixiy romanlari milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashda muhim manbadir. Adib ko'p tanqid, bosimlarga uchragan bo'lsa-da: "Haqiqat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi", – degan haqiqat uning ijodi orqali o'z tasdig'ini topdi.

Xulosa

Yozuvchining tarixiy haqiqatga sadoqatli yondashuvi, millat ma'naviyatiga xizmat qiluvchi asarlar yaratishi uni XX asr o'zbek adabiyotining eng yorqin siymolaridan biriga

aylantirdi. Pirimqul Qodirovning romanlari va ilmiy badialarining barchasi bir maqsadga — milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgandir. Shuning uchun ham adib merosi bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan va milliy adabiyotimizning bebaho boyligi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. P. Qodirov. Avlodlar dovoni / roman / "Adabiy barhayot asarlar" turkumi - T. : "Adabiyot uchqunlari", 2018. - 640 b.
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/avlodlar-dovoni-hikmatlari-pirimqul-qodirov>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/umida-rasulova-munavvar-taqdirlar-talqini>
4. Yulduzli tunlar: roman / Pirimqul Qodirov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 668 b.